



POLIVINILXLORID ASOSIDA KRAMAL BILAN KOMPOZITSIYASINI BIOPARCHALANANISHIDA DERIVATOGRAMMA TAHLILI

Toshtemirov F.A. – Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti KT kaferdrasi assistenti;

Ismatov H.Y. – Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti KT kaferdrasi doktoranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada polivinilxloridning ahamiyati, polivinilxlorid va uning kompozitsiyalarining tuzilishi, PXV asosida kompozitsiyalarni olish, olingan kompozitsiyalarni derivatogrammasi haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: PVC, kramal, polimer, namlik, plyonka, derivatogramma, bosim, bioparchalanadigan materiallar.

АНАЛИЗ ДЕРИВАТОГРАММЫ БИОДЕГРАДАЦИИ КОМПОЗИТА С КРАХМАЛОМ НА ОСНОВЕ ПОЛИВИНИЛХЛОРИДА

Тоштемиров Ф.А. - Ассистент кафедры ХТ Навоийского государственного горно-технологического университета;

Исматов Х.Ю. – докторант кафедры ХТ Навоийского государственного горно-технологического университета.

Аннотация: В данной статье описано значение поливинилхлорида, строение поливинилхлорида и его композиций, получение композиций на основе ПВХ, а также дериватограмма полученных композиций.

Ключевые слова: ПВХ, крахмал, полимер, влага, плёнка, дериватограмма, давление, биоразлагаемые материалы.

ANALYSIS OF THE DERIVATOGRAM OF BIODEGRADATION OF A COMPOSITE WITH STARCH BASED ON POLYVINYL CHLORIDE

Toshtemirov F.A. - Assistant at the Department of Chemical Technology of Navoi State Mining and Technology University;

Ismatov Kh.Yu. – doctoral student at the Department of Chemical Technology of Navoi State Mining and Technology University.

Abstract: This article describes the meaning of polyvinyl chloride, the structure of polyvinyl chloride and its compositions, the preparation of compositions based on PVC, as well as a derivatogram of the resulting compositions.

Key words: PVC, starch, polymer, moisture, film, derivatogram, pressure, biodegradable materials.

Kirish. XXI asr nafaqt yuqori texnologiyalar, balki global ekologik muammolar asridir. Bunday muammolardan biri atrof-muhitning polimer chiqindilari bilan ifloslanishi



muammosidir. So'nggi paytlarda butun dunyoda polimerlar ishlab chiqarishning o'sishi kuzatilmoxda. Yetarli ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda polimer mahsulotlari taxminan 40% ni qadoqlash ishlarida tashkil qiladi. Neft-kimyo xomashyosidan olinadigan polimerlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish hajmi muttasil ortib bormoqda. Ma'lumki, an'anaviy polimer materiallarning parchalanishi o'nlab va yuzlab yillar davom etadi. Shuning uchun bioparchalanuvchi polimerlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Polimer chiqindilarini qayta ishlash muammosi hozirda eng dolzarb hisoblanadi. Maishiy chiqindilar miqdori juda katta bo'lib, uning taxminan yarmini plastik chiqindilar tashkil etadi. So'nggi yillarda butun dunyoda turli mikroorganizmlar ta'sirida vayron bo'ladijan biologik parchalanadigan polimer materiallar va ulardan tayyorlangan qadoqlarga qiziqish ortib bormoqda [2,3]. Bunday materiallarni yaratish zarurati chiqindilarni yo'q qilish uchun joy etishmasligi, neftning yuqori narxi (an'anaviy plastmassa ishlab chiqarish uchun xom ashyo), an'anaviy polimerlarni ko'p marta qayta ishlashning mumkin emasligi (qayta ishlash jarayonida ba'zi xususiyatlar yo'qoladi) va neft resurslarining qayta tiklanmasligi, shuningdek, an'anaviy plastmassalarni ishlab chiqarish va qayta ishlash natijasida yuzaga kelgan ko'plab ekologik muammolar [4].

Ushbu muammolarni hal qilishda PVX asosida turli xil bioparchalanadigan kompozitsiyalar olish ya'ni biopolimerlar yaratish va atrof-muhitning polimer chiqindilari bilan ifloslanishini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Polivinilxlorid va uning kompozitsiyalarining tuzilishi.

Kompozitsion polimer materiallarini plastifitsirlash avvalo undan qanday turdag'i va qanday xossaga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarilishiga bog'liq bo'lib, kompozitsiya tarkibiga qo'shiladigan har bir komponent aniq bir maqsadni ko'zlab qo'shiladi [5]. Odadta, ko'pincha PVX xom-ashyosi asosida kompozitsiya tayyorlanib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning elastiklik xossalari oshirish maqsadida unga turli xildagi plastifikatorlar qo'shiladi. Ular sanoat miqyosida ko'plab ishlab chiqariladi. Jumladan, PVX uchun dioktilftalat (DOF), dibutilftalat (DBF), dioktilsebatsinat (DOS) va boshqalar. PVX asosidagi plastifitsirlangan polimer materiallari kabellarni izolyatsiyalashda, linoleumlar, plyonkalar, shovqindan himoya qiluvchi vositalar va shunga o'xshash ko'pgina turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi [6,7].

Eksperimental tadqiqot o'tkazish tasnifi.

PVXni kraxmal bilan kompozitsiyalarini olish. PVX bilan kompozitsiya olish uchun biz uchun kerakli quyidagi 1-jadval asosida kukunsimon kraxmal moddani analik tarozida o'lchab olib, PVX+DOF kunkunsimon kraxmal moddasi bilan aralashtiramiz va ekstruder qurilmasi yordamida kompozitsiya olamiz. Ekstruder qurilmasida temperaturani birinchi qismi 140 °C ikkinchi qismini 120 °C qilib olamiz. Ekstruderdan chiqqan kompozitsiyamizni qirqib olamiz va uni 3 marta ekstruder qurilmasidan o'tkazamiz sababi olinadigan kompozitsiyamiz yaxshi bir biri bilan birikadi. Shu holatda quyidagi foizda kompozitsiyamizni taxlab olamiz(1-jadval).

1-jadval

№	Nomi	PVX+DOF+Kraxmal 50 gr		Ekstruderdag'i temperatura	
		PVX+DOF- gr	Kraxmal-gr	Birinchi qism	Ikkinchi qism
1	PVX+DOF+Kraxmal-5%	47,5	2,5	140	120
2	PVX+DOF+Kraxmal- 10%	45	5	140	120
3	PVX+DOF+Kraxmal- 15%	42.5	7.5	140	120
4	PVX+DOF+Kraxmal- 20%	40	10	140	120



PVX kompozitsiyasi asosida plyonka olish va tajriba uchun tayyorlash.

Olingen foizlar asosida kompozitsiyalarimizni 4-6 mm dan qilib qalamcha shaklida qirqib olamiz. Tayyor bo'lgan kompozitsiyamizdan plonka olamiz. Plonkamizni o'lchami d=15x16, qalinligi 1-2 mm shuncha bo'lgan plonkalarni olamiz. Plonka olish jarayoni quyigicha boradi:

1. 3,5 gr kompozitsiyamizdan o'lchab olamiz.
2. O'lchanigan kompozitsiyamizni maxsus qolipimizga solamiz.
3. Qolipimizni ostki va ustki tomonini falga qog'ozni bilan o'raymiz.
4. O'ralgan qolipimizni plonka olish qurilmasiga qo'yamiz.
5. Plonka olish qurilmamizni 170-180 °C temperaturada qizdiramiz.
6. Qizigan qurilmamizga qo'yilgan qolipimizni 150 kgPa bosimda 20-30 sekund ushlaymiz.

7. Undan keyin esa bosimni tushurib qolimizni olamiz va shu zahoti sovuq suvgaga solamiz.

8. Undan so`ng qolipimizdan falga qog'ozni ajratamiz.

Shunday qilib, plonka olish jarayoni tugaydi. Olingen plonkalarimizni tajriba uchun tayyorlaymiz hamda tuproqqa ko'mamiz (2-jadval).

2-jadval

Olingen PVX kompozitsiyalarida plonkalarni tuproqlarda ko'mish tartibi.


Plonkalarni 15 ta gul tuvakka turli xil foizlarda tuproq+go'nglarga ko'mildi.

№	Plonka turi	Tuproq turi	Plyonkani massasi	Ko'milgan sana	Saqlanish muddati
1	PVX+DOF	Tuproq	3,0; 3,13; 3,15; 3,15	07.10.2022	1 oy; 3 oy; 6 oy; 12 oy
		Tuproq 50%-go'ng 50%	3,14; 3,14; 3,15; 3,15		
		Tuproq 10 %-go'ng 90%	3,15; 3,15; 3,15; 3,15		
2	PVX+DOF+KRAMAL 5%	Tuproq	3,17; 3,17; 3,17; 3,17;	07.10.2022	1 oy; 3 oy; 6 oy; 12 oy
		Tuproq 50%-go'ng 50%	3,15; 3,15; 3,15; 3,15;		
		Tuproq 10 %-go'ng 90%	3,15; 3,15; 3,15; 3,15;		
3	PVX+DOF+KRAMAL 10%	Tuproq	3,14; 3,19; 3,19; 3,21	07.10.2022	1 oy; 3 oy; 6 oy; 12 oy
		Tuproq 50%-go'ng 50%	3,21; 3,21; 3,21; 3,21		
		Tuproq 10 %-go'ng 90%	3,21; 3,21; 3,21; 3,21		
4	PVX+DOF+KRAMAL 15%	Tuproq	3,08; 3,14; 3,14	07.10.2022	1 oy; 3 oy; 6 oy; 12 oy
		Tuproq 50%-go'ng 50%	3,16; 3,16; 3,16; 3,16		
		Tuproq 10 %-go'ng 90%	3,16; 3,16; 3,16; 3,16		
5	PVX+DOF+KRAMAL 20%	Tuproq	3,16; 3,21; 3,21; 3,21	07.10.2022	1 oy; 3 oy; 6 oy; 12 oy
		Tuproq 50%-go'ng 50%	3,237; 3,237; 3,24; 3,24		

		Tuproq 10 %-go`ng 90%	3,24; 3,24 3,24; 3,24		
--	--	-----------------------	--------------------------	--	--

Eksperiment natijalari.

Olingen natijalarda atmosfera havosidagi asl polivinilxloridning derivatogrammasi 168, 218 va 246°C da dastlabki va barqarorlashtirilgan namunalar uchun DTA egri chizig'ida kuzatilgan endotermik cho'qqi uning erishiga to'g'ri keladi. 405-419 °C haroratda endotermik cho'qqilar polimer matritsasidan vodorod xloridning chiqishi bilan bog'liq. Asl va stabillashgan PVX uchun 380-400 °C da ekzotermik cho'qqilar termal-oksidlanish degradatsiyasi jarayoniga bog'liq. Og'irligi 0,5% va 2,0% issiqlik stabilizatorini o'z ichiga olgan stabillashtirilgan namunalar uchun yuqori haroratlarda ekzotermik tepaliklar paydo bo'ladi, ya'ni. 300-400 °C oralig'ida (1-rasm).



1-rasm. Atmosfera havosidagi asl polivinilxloridning derivatogrammasi.

Tahlillar shuni ko'ssatadiki, 1- parchalanadigan oraliqda intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'ladi. Bu oraliqda parchalanishning miqdori, ya'ni parchalanishning 78,88 % amalga oshadi.

Dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i va DSK egri chizig'inining batafsil tahlili, quyidagi jadvalga keltirilgan.


3-Jadval

2-rasmning DTGA va DSKe gri chizig'i natijalari tahlili

No	Temperatura, °C	Yo'qotilgan massa, %	Moddaning parchalanish tezligi, mg/min	Sarflanadigan energiya miqdori(μV*s/mg)
1	50	0,925	0,137	1,45
2	100	2,985	0,465	2,88
3	200	15,25	0,453	2,01
4	300	50,35	0,087	3,02
5	400	61,85	0,147	1,02


6	500	69,49	0,455	2,03
7	600	78,88	2,499	1,59

Olingan derivatogramma 2-rasmda keltirilgan bo'lib, u 3 ta egri chiziqdan iborat. Dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i (DTGA) (2-egri chiziq) tahlili shuni ko'rsatadi, DTGA egri chizig'i asosan 3 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida amalga oshadi. 1 ning parchalanish temperaturasi 89 °C ni tashkil qiladi 1-parchalanadigan oraliq 101-482 °C temperaturaga mos keladi.



2-rasm. 1- dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i (DTGA); 2- dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'ining hosilasi (DTGP); 3-DSK egri chizig'i.

Bu derivatograflar tadqiqotlar natijasida ko'rindik asosiy massa yo'qolishi 130-480 °C oraligida kechadi unda asosiy massaning 78,88 % yo'qoladi.



3-rasm. 1- dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i (DTGA); 2- dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'ining hosilasi (DTGP); 3-DSK egri chizig'i.



Olingen derivatogramma 3-rasmda keltirilgan bo'lib, u 3 ta egri chiziqdan iborat. Dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i (DTGA) (2-egri chiziq) tahlili shuni ko'rsatadiki, DTGA egri chizig'i asosan 3 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida amalgalashadi. 2 ning parchalanish temperaturasi 93 °C ni tashkil qiladi 1-parchalanadigan oraliq 105-486 °C temperaturaga mos keladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1-parchalanadigan oraliqda intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'ladi. Bu oraliqda parchalanishning miqdori, ya'ni parchalanishning 75,97 % amalgalashadi.

Dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i va DSK egri chizig'inining batafsil tahlili, quyidagi jadvalga keltirilgan.

4-Jadval

3-rasmning DTGA va DSK egri chizig'i natijalari tahlili

№	Temperatura, °C	Yo'qotilgan massa, %	Moddaning parchalanish tezligi, mg/min	Sarflanadigan energiya miqdori ($\mu\text{V}^*\text{s}/\text{mg}$)
1	50	0,925	0,198	1,23
2	100	2,985	0,520	2,96
3	200	6,251	0,632	2,62
4	300	45,35	0,025	3,11
5	400	59,85	0,202	1,98
6	500	63,49	0,623	2,65
7	600	75,97	2,362	1,55

Bu derivatogrof tadqiqotlar natijasida ko`rinadiki asosiy massa yo`qolishi 132-485 °C oraligida kechadi unda asosiy massaning 75,97 % yo`qoladi.

Dermogrammalarda boshqa ekzotermik cho'qqilarning paydo bo'lishi murakkab jarayonlar bo'lgan stabillashtirilgan namunalarda keyingi termal-oksidlanish degradatsiyasining o'zgarishini ko'rsatadi.

Xulosa.

Polivinilkloridning xususiyatlari va ishlatilish sohasi, uni ishlab chiqarish usuliga bog`liq. PVX ning xossalari kimyoviy modifikatsiyalab o`zgartirish mumkin. Xom ashyoning mo`lligi, polimer olishni oson usularini mavjudligi, qimmatli xossalari PVXni ishlab chiqarishni rivojlanishiga va ko`plab ishlab chiqarilishiga sabab bo`ldi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot chiqindilarini qayta ishlash uchun esa PVX ning fizik-kimyoviy xossalari o`zgartirishimiz ya'ni polimer-polimer kompozitsiyalaridan foydalandan holda uning bioparchalanishini o`rganishimiz zarurdir.

Olingen derivatogramma shuni ko'rsatadiki ma'lum vaqt o'tgan sari olingen kompozitsiyaning tuproq+go`ngda ko`milgani vaqtiga qarab uning parchalanish tezligi ortib borayapti. Demak, kompozitsiyalarda bioparchalanish jarayoni muhitning ham ta'siri bor ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Хувинк Р., Сватерман Л. Химия и технология полимеров, т.1. - М-Л.: Химия, 1965. - 445 с.
- [2]. Заявка, Япония 58-52353. Композиция на основе галогеносодержащих полимеров / Окуба Йосикацу, Цурига Кодзи, Ксанти Интиро, Като Акира.-Опубл. в РЖХим., 1984, 9 Т 1032 П.79с
- [3]. Карапетянц М.К., Дракин С.И. Строение вещества. -М.: Высшая школа, 1972, -126 стр.
- [4]. Пат. Япония 58-62095. Водостойкие копировальные материалы. /Гото Хиронори, Гото Ясуюки, Косино Нагааки, Когава Киея. - Опубл. в РЖХим., 1984, 12 Т 2223 П.



[5]. Пат. США 5087679. Полимерные диэлектрики /Jnukai Hiroshi, Kawai Noriko, Kitahara Takahiro, Kai Shinichiro, Kubo Motonobu - Опубл. в РЖХим., 1993, 12 С 309 П.

[6]. Пат. Россия 2087392. Слоистая оболочка для обеспечения тепловой и электростатической защиты. /Брайдон Луис Б., Мооргэмюль Р., Холбери Джемс, Смейс Систем. - Опубл. в РЖХим., 1999, 6 Т 180 П.

[7]. Э.Т. Крутько, Н. Р. Прокопчук, А. И. Глоба “Технология биоразлагаемых полимерных материалов” Минск 2014-106с